

Matyoqubova Mavluda Shonazarovna

Barkamol avlod bolalar maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha davr-sog‘lom turmush tarzining asosiy davri haqida so‘z boradi*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha yosh, sog‘lom turmush tarzi, ilk qadam, o‘yin*

«Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari» va «Ilk qadam» o‘quv dasturining ishlab chiqilishi maktabgacha ta‘lim sohasini samarali faoliyatini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri kelajak avlod salomatligi, uning hayot faoliyati xavfsizligini ta‘minlashdan iboratdir.

Albatta, bu borada samarali ishlar olib borilmoqda. Maktabgacha davr – sog‘lom turmush tarzini, hayot faoliyati asoslarini o‘rganishning asosiy davri hisoblanadi. Shu bilan birgalikda bu bolaning o‘sish, rivojlanish, o‘zini namoyon etishga intilish, o‘rganishga, bilishga ishtiyoqi kuchli bo‘lgan davrdir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatlari va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta‘lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta‘sir qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bola oilasi va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari xodimlari qaramog‘ida, himoyasida bo‘ladi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotdan so‘ng bola ma‘lum darajadagi erkinlikka chiqadi va maktabga boradi.

Hayot faoliyati xavfsizligi – insonni har qanday muhitdagi faoliyatida uning xavfsizligi va sog‘ligini ta‘minlovchi, xavfli va zararli omillardan himoya qiluvchi amaliyot va nazariyani qamrab olgan ilmiy bilimlar majmuidir.

Bola na o‘zi, na atrofida hayotining xavfsizligi oldidagi ma‘suliyatini anglaydi. Chunki bolada bunday munosabat shakllanib ulgurmagan. Demak, bundanki, bolani kelgusi hayotga tayyorlash, uni turli vaziyatlarda o‘zini

yo‘qotib qo‘ymaslikka o‘rgatish ham bola hayotining xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Bolalarga ko‘chada, hovlida, uyda o‘zini tutish ko‘nikmasini hosil qilishlari, uy jihozlarini to‘g‘ri va xavfsiz holda ishlatishlari, hayvonlar bilan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishlari, velosiped va roliklarni to‘g‘ri boshqarishlari uchun kerakli nazariy va amaliy tushunchalar va boshqalar o‘rgatilishi lozim.

Bolalarga favqulotda hodisalar ro‘y bergan holatlarda o‘zlarini qanday tutish kerakligi borasida kerakli tushuncha va tasavvurlarni turli o‘yinlar yordamida singdirish kerak. Masalan, quyidagi o‘yinlar mavzularini keltirish mumkin: “O‘t o‘chiruvchilar” o‘yini, “Tez yordam” o‘yini, “Kim zukko?” o‘yini, “Ehtiyot bo‘l!” o‘yinlari bolalarni xavfsizlik qoidalarini bilishga chorlaydi. Shuning uchun har bir maktabgacha ta‘lim tashkilotlari o‘zlarining yashash muhitini hisobga olgan holda zarur tavsiyalar ishlab chiqishlari lozim. Bolalarga turli xil xavf-xatarlardan saqlanishni o‘rganish uchun haqiqiy ko‘rinishga yaqinlashtirilgan turli tarbiyaviy muhitni syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirishlar tarzida yaratib berish kerak. Hayot xavfsizligi asoslari bo‘yicha dasturni ishlab chiqishda uning negizi sifatida ilk va maktabgacha yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari olinadi. Unda bolalarni xavf-xatardan ogohlantirish bo‘yicha xavfsizlik qoidalari o‘z aksini topgan bo‘lishi lozim.

Dasturni ishlab chiqishda uning negizi sifatida “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” olinadi. Bunda eng birinchi rivojlanish soha bo‘lgan “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllanishi” da kichik soha “Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik” yo‘nalishida quyidagi talab:

Bola sog‘liqni saqlash malakalarini namoyon qiladi va u xavfsiz sog‘lom taom va hayot xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega bo‘lishi kerak. Bunda aynan xavfsizlik qoidalariga muvofiq keladigan talablarni keltirib o‘tamiz:

3-4 yosh davrda bola asta-sekin xavfli bo‘ladigan predmetlarni farqiga boradi.

4-5 yosh davrda mustaqil sanchqidan foydalana boshlaydi, atrofdagilardan yordam so‘ray oladi, xavfli bo‘lgan predmetlar, joylar va moddalar nomini biladi

(zinapoya, balkon, ochiq oyna, issiq suv, dori, olov, o‘tkir asboblari, elektr jihozlari va ulardan foydalanish), notanish insonlar bilan ketish mumkin emasligini tushuntiradi.

5-6 yosh davrida xavfsiz hatti-harakatlarning asosiy qoidalarini biladi va ularga rioya qiladi, yordam zarur bo‘lganda kattalarga murojaat qilish kerakligini biladi, xavfli faoliyatlar nomini aytib beradi, xavfli joylarda o‘ynash (mashina qatnovi yo‘laklarida, qurilish yaqinida, notanish suv havzalarida, ko‘l, oqar suvlarda cho‘milish) velosipedda, mashina qatnovi yo‘llarida) 6-7 yosh davrida zararli bo‘lgan hulq shakllarini anglaydi – olov bilan o‘ynash, elektr tokdan ehtiyotdan foydalanish, bog‘chada, ko‘chada, transportda yurish qoidalariga rioya qiladi, piyodalar va velosipedchilar uchun yo‘l qoidalarini biladi, yong‘in xavfsizligi-101, milliy gvardiya-102, tez yordam-103, gaz xizmati-104 telefon raqamlarini biladi, xavfli vaziyatlarda qanday yo‘l tutishni biladi va tushuntiradi, supermarketda, shaharda, qishloqda, dalada yo‘qolib qolsa, o‘zini qanday tutish kerakligini biladi.

Shuningdek bolalarni xavf-xatardan ogohlantirish bo‘yicha xavfsizlik qoidalarini o‘z aksini topadi.

Xavfsizlik qoidalariga asoslangan mavzular kiritiladi. Masalan: 457 “Bola va begona odamlar”, “Bola va tabiat”, “Bola uyda yolg‘iz”, “Bola va uning salomatligi”, “Bolalar va atrof muhit”, “Bola shahar ko‘chalarida”, “Bola va mahalla muhiti”, “Bolaning ijobiy xislatlari”, “Bola bog‘chada”, “MTT va bola”, “Bola va xavfsiz muhit”, “Bola himoyada”, “Tashkilotda bolaning xavfsiz va sog‘lom ovqatlanishi”.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan mavzular bo‘yicha turli uslublardan foydalangan holda metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularda quyidagilar nazarda tutilmog‘i kerak:

-syujetli-rolli o‘yinlar tashkil etish va ularda hayotiy voqealarni namoyon etishda mazmunli ertaklardan foydalanish;

-bolalarga o‘zlarini himoya qilishni o‘rgatish (yordamga chaqirish, qichqirish);

-badiiy adabiyotlarda ifodalangan xavfli voqealarning tasvirlaridan foydalanish;

-video materiallar, multimedia va slaydlardan foydalanish;

-ekskursiyalar, suhbatlar o‘tkazish, turli narsa - hodisalar, uy-joylar, transport vositalari va shu kabilarning loyiha-maketlari bilan o‘ynash, topishmoqli o‘yinlardan foydalanish mumkin.

Bolalar ilk xavfsizlik tushunchalarini bilib borar ekan, u hayotga teran ko‘z bilan boqib, o‘zining o‘yin faoliyatida namoyish eta boshlaydi, eshitgan va ko‘rganlarini kichik o‘rtoqlari jamoasida sahnalashtiradi. Maktabgacha yosh davridanoq bolalar hayot xavfsizligi saboqlarini o‘rganib, kelajak hayotga va undagi turli muammoli vaziyatlarni yechimini topa olishga chinakamiga tayyorgarlik ko‘rib boradi. Tashkilotda o‘tkaziladigan shunday chiqishlar va tadbirlarda ota-onalar ham qatnashishlari lozim.

Natijada ota-onalar ham xavf-xatarni oldindan sezish va uni oldini olish, kerak bo‘lganda to‘g‘ri harakat qilishning yo‘llari va usullarini o‘z farzandlariga o‘rgatib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida ota-onalar va tashkilot o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni to‘g‘ri amalga oshirishda katta ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.R.G.Qodirov “Musiqqa psixologiyasi” T.”Musiqqa” nashriyoti 2005
2. G.M.SHaripova Musiqqa va uni o‘qitish metodikasi. 2019 Turon-iqbol
3. D.A.Karimova Musiqqiy pedagogik mahorat asoslari T. Moliya -iqtisod 2008
4. D.A.Karimova “Musiqqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash ” darslik LESSON PRESS nashriyoti.2021 y.